

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YEVROPA HAMDA MARKAZIY OSIYO
DAVLALATLARINING TUTGAN O'RNI.**

Boboniyozova Lola Olimjonovna

Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

O'zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o'rni, insoniyat tamaddunlariga qo'shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rinadi. Xalq ijodi, xususan, og'zaki ijod namunalari yurtboshimiz aytganlaridek, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma'naviy xazina hisoblanadi. Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma'nan kamolot topishi yo'lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifalaridan biridir.

"Ayniqsa Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarini yo'lga qo'yish va toboro chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning tashabbuslari bilan 2011-yil yanvar oyida Bryusselga tashrifi O'zbekistonning yevropa Ittifoqi va Nato bilan munosabatlarining yangi sahifasini ochdi. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti J.M.Barroso va NATO Bosh kotibi A.F.Rasmussen bilan muzokoralari natijasida O'zbekiston bilan Yevropa va NATO o'rtasida mintaqaviy va global xavfsizlik hamda energetika kabi strategic masalalariga doir qator hujjatlar imzolandi".⁵⁰

"Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi o'rni alohida e'tirofga molik. Jahonda ishlab chiqariladigan umumiy ichki mahsulotning 28 foizi, ya'ni 15 trln. AQSH dollari Ittifoq hisobiga to'g'ri keladi. Bu jahon iqtisodiyotining oltidan bir ulushi demakdir. Dunyodagi eng katta daromadga ega deb e'tirof etilgan 500 ta yirik kompaniyaning 161 tasi Yevropa Ittifoqida joylashgan. Yevropa Ittifoqining jahon savdo aylanmasidagi eksport-import ulushi esa 20 foiz, ya'ni 3,645,933 mln. yevroga tengdir. Shundan import ulushi – 1,714,224 mln. yevro, eksport ulushi esa 1,931,709 mln.yevrodir. Global tovar eksportida (jami 13 636.6 mln. yevro) Ittifoqining ulushi 15,6 foizni tashkil etsa (jami 2 131.7 mln. yevro), global tovar importida (jami 13 958.4 mln. yevro) esa uning ulushi 13.9 foizga tengdir (yoki 1 935.3 mln. yevro). Global xizmatlar eksport-importida Ittifoq o'rtacha 22 foiz ulush bilan dunyoda birinchi o'rinni egallaydi."⁵¹

Mamlakatimizdagi barqaror siyosiy va iqtisodiy rivojlanish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi birdamlik va zabt etilayotgan yangi marralar, global va mintaqaviy muammolarni hal etish yo'lidagi davlatimiz rahbarining aniq va dadil tashabbuslari, umuman, qo'lga kiritilayotgan barcha muvaffaqiyatlarimiz Yevropalik hamkorlarimizning bundan o'n yil avvalgi qarashlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Har qaysi zamonda tashqi siyosat ichki siyosatning mantiqiy davomi sifatida ko'rilar ekan, yangilanayotgan O'zbekistondagi xalqchilik, ochiqlik, shaffoflik va o'zaro

⁵⁰ Q.Usmonov O'zbekiston tarixi "O'qituvchi"-T.:191b.2012-yil.

⁵¹ Haydarali Yunusov, *Toshkent Yevropa tadqiqotlari markazi yetakchi eksperti Manba: Aniq.uz*

manfaatdorlik tamoyillari mamlakatimiz tashqi siyosatida ham o'z aksini topayotganligi, ichki va tashqi siyosatning uyg'unligi buning uchun zamin yaratgan bo'lsa, ajabmas. E'tirof etish mumkinki, mamlakatimiz ichkarisidagi o'zgarishlarning xalqaro maydondagi evrilishlarga hamohangligi va to'liq uyg'unlashib borayotganligi Yevropalik hamkorlarimizda ishonch ruhini yanada kuchaytirdi.

"Ayniqsa, 2017-yilda O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi aloqalarida yangi bosqich boshlandi. Hozirgi paytda zamon va u bilan birgalikda xalqaro vaziyat, xalqaro hamjamiyat va xalqaro aloqalar tabiati shiddat bilan o'zgarimoqda ekan, o'zgarishlar davri da'vati mazkur bosqichning mantiqiy asosini tashkil etadi. Shu bois, 2017-yil noyabr oyida azim Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun yurtimizga birinchi marta tashrif buyurgan Yevropa Ittifoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili F.Mogerini Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo munosabatlarining ustuvor yo'nalishlari xususida gapirar ekan, o'zgarishlar davri sherikchiligi g'oyasini ilgari surdi. Shu asnoda, aytish mumkinki, ikki tomonlama aloqalardagi turg'unlik kayfiyatini shiddatli o'zgarishlar davrining uyg'oq ruhi egalladi."⁵²

"2017-yil 9-noyabr kuni Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Federika Mogerini va Prezident Shavkat Mirziyoyev o'rtasida o'zaro ishonchga asos yaratgan g'oyat yuqori darajadagi muloqot tashkil etildi. 2019-yil 31-mayda esa Toshkentda O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev hamda Yevropa Ittifoqi Prezidenti Donald Tusk uchrashuvi bo'lib o'tdi. Yevropa Ittifoqi rahbarining O'zbekistonga ilk tashrifi diplomatik aloqalarning 25 yilligiga to'g'ri keldi. 2017-yildan Yevropa investitsiya banki (YEIB) hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) O'zbekiston bilan hamkorlikni yangidan yo'lga qo'ydi. 2017-yil oktyabrda O'zbekiston YEIB bilan hamkorlik bo'yicha bitim imzolandi, 2017-yil noyabrda YETTB Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi."⁵³

Prezidentimizning tashqi siyosatda birinchi amalga oshiradigan ishi aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatish edi. Yaqin-yaqingacha bu davlatlar bilan aloqalar iliq emas edi. Lekin Shavkat Mirziyoyev sharofatlari bilan yillar davomida paydo bo'lgan muzliklar 1 yilda erib ketdi. To'g'ri hozirda pandemiya, lekin pandemiyadan oldingi 2017-2019 yildagi qo'shni davlatlar bilan aloqani va undan oldingi paytdagi aloqalarni bir taqqoslab ko'ringchi?! Yangi O'zbekistonimiz yangicha dunyoqarash bilan jahonning rivojlanayotgan davlatlari orasida o'z o'rnini topayabdi.

"Shuningdek, 2017-2020 yillar davomida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan

⁵² H.Yunosov. "O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi aloqalarining yangi bosqichi – ishonchli qadamlar bilan yuksak marralar sari" *ma'ruza* 2021

⁵³ Haydarali Yunusov, *Toshkent Yevropa tadqiqotlari markazi yetakchi eksperti Manba: Aniq.uz*2021

foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi. Agar besh yil oldin o'zbek-qirg'iz davlat chegarasini kuniga 200–300 kishi kesib o'tgan bo'lsa, global pandemiya ta'sirida joriy qilingan cheklovlarga qadar bu ko'rsatgich kuniga 30 ming kishiga yetgan, O'zbekistonTojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o'tgan. Bundan tashqari mamlakatimizda “Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi” shiori ostida aholi orasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va subsidiya berish siyosati olib borilyapti. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatidan byurokrtiyani yo'qotish ham muhim vazifalardan biri bo'lib qolyapti. Bularning samarasi o'laroq tadbirkorlikni ro'yxatga olish indeksida 8-o'ringa ko'tarildik, umumiy biznes faoliyatini olib borish reytingida oxirgi 5 yil ichida 141-o'rindan 69-o'ringa ko'tarildik. Eng asosiysi esa tadbirkorlar shaxsan prezident bilan uchrashyaptilar, muammo va takliflarni erkin bildira olyaptilar”.⁵⁴

Yana bir muhim o'zgarish sifatida O'zbekistondagi iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni aniqligi va shaffofligi oshirilganligidir. O'zbekistondagi istalgan fuqaro stat.uz ga kirish orqali O'zbekistondagi eng yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarining statistikasini ko'rishi mumkin. Statistika qo'mitasi hodimlarini doimiy malakasini oshirish va xalqaro standartlarga amal qilish orqali ma'lumotlar yanada reallikka yaqin, aniqroq bo'lmoqda. Shaxsan o'zim uchun eng quvonarli o'zgarishlardan biri bu palov indeksi tuzilganligidir.

“O'zbekiston iqtisodiy holatini yanada aniqlashtirish maqsadida 2020-yil yanvar oyida “palov indeksi” tuzildi. Dunyoning ko'plab davlatlarida “BigMak indeksi”, Rossiyada “olivye indeksi” bo'lganidek, bu indeks ham fuqarolarimiz sotib olish qobiliyati qanchalik o'zgarganligini ko'rsatib beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi 200 ga yaqin mamlakat a'zo bo'lgan eng yirik xalqaro tuzilma hisoblandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach birinchi bo'lib a'zo bo'lgan xalqaro tashkiloti ham aynan BMTdir. Bugungacha bu hamkorlik tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, sog'liqni saqlash, ekologiya, ta'lim, madaniyat, turizm kabi ko'plab sohalardagi o'zaro davom etib kelmoqda. Qayd etish joizki, so'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini qo'shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o'zaro ishonch mustahkamlandi, davlat rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvlari yo'lga qo'yildi”⁵⁵.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, hozirda O'zbekiston yangi tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanishlarga erishish va yangi qo'shnicilik aloqalarini o'rnatish yo'lida shaxdam qadamlar tashlamoqda. Deyarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha 5 yil ichida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Oxirgi yillarda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar O'zbekistonning xalqaro maydonlaridagi o'rnini yuksaltirmoqda. Albatta, biz – yoshlar ham o'zimizning innovatsion takliflarimiz, bilimimizni yanada

⁵⁴ . Шавкат Мирзиёев. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент : «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 488 бет

⁵⁵ Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. Тошкент – «Ўзбекистон» 2016. — 59 бет

yuksaltirishimiz orqali Yangi O'zbekistonning yanada rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.